

**ERKINLIK, SADOQAT VA INSONIYLIK G‘OYALARINING BADIY-
FALSAFIY TALQINI**

Jamilova Bashorat Sattorovna,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori.
flowergamilova@gmail.com

Boboxonova Feruza Muhiddinovna,
BuxDU, O‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi,
e-mail: feruza231191@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hayvonlar haqidagi asarlarning yosh avlod ma'naviyati va psixikasini shakllantirishdagi o'ziga xos o'rni tahlil qilinadi. Xususan, Ernest Seton-Thompson, Ivan Sergeyevich Turgenev hamda Erkin Malik asarlarida hayvonlar olami faqat instinkt emas, balki sadoqat, erkinlik va jasorat timsoli sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan animalistik adabiyot nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham mehr-shafqat va insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otishi aniqlanadi. Shuningdek, asarlar tahlili jarayonida jamiyatning tabiat va hayvonlarga bo'lgan munosabati inson kamolotining muhim asosi ekani, erkinlikni qadrlash va barcha tirik mavjudotlarga chin muhabbat bilan munosabatda bo'lish zarurligi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, animalistik, badiiy obraz, erkinlik, sadoqat, psixologizm, badiiy talqin, tabiat, hayvon, motiv, insonparvarlik, tafakkur, instinkt, bolalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается уникальная роль произведений о животных в формировании духовности и психики подрастающего поколения. В частности, в произведениях Эрнест Сетон-Томпсон, Иван Сергеевич Тургенев и Эркин Малик мир животных изображается не просто как проявление инстинкта, а как символ верности, свободы и мужества. В этом контексте становится очевидным, что анималистическая литература пробуждает чувства сострадания и гуманизма как у детей, так и у взрослых. Также в ходе анализа произведений делается вывод о том, что отношение общества к природе и животным является основой развития человека, а также подчёркивается необходимость ценить свободу и проявлять искреннюю любовь ко всем живым существам.

Ключевые слова: литература, анималистика, художественный образ, свобода, верность, психологизм, художественная интерпретация, природа, животное, мотив, гуманизм, мышление, инстинкт, дети.

Abstract. This article examines the unique role of works about animals in the formation of the spirituality and psyche of the younger generation. In particular, the works of Ernest Seton Thompson, I.S. Turgenev and Erkin Malik depict the animal world as not just an instinct, but a symbol of loyalty, freedom and courage. In this sense, it becomes clear that animalistic literature awakens feelings of compassion and humanity in both adults and children. Also, during the analysis of the works, a conclusion is drawn that society's attitude to nature and animals is the basis of human development, the need to appreciate freedom and show true love to all living beings.

Keywords: literature, animalistic, artistic image, freedom, loyalty, psychologism, artistic interpretation, nature, animal, motif, humanity, animal, thought, instinct, children.

Kirish. Adabiyot shunday ulkan ma'naviyat bulog'iki, undan o'z chanqog'ini qondirgan har bir ongli mavjudot nafaqat ko'ngli o'sha buloqdek qaynab toshadi, tozalanadi, yangilanadi, balki go'zallikdan qalb ko'zi yayraydi, tafakkuri charxlanadi, ulkan hayotiy saboq ham oladi. Bu adabiyot bo'stonining sahni juda keng: unda bolalar-u o'smirlar, kattalaru keksalar, hatto hayvonlar ham sevimli qahramonga aylanib,

mehringizga sazovor bo'ladi. Xususan, bolalarning birinchi qahramonlari, bizning esa "kichik birodarlarimiz" – hayvonlar tasviri adabiyotda alohida turkumni tashkil qilib, ularga nisbatan rahm-shafqatli bo'lish zarurati tobora muhim omilga aylanmoqda. Zotan, hayvonlar haqidagi badiiy-publitsistik asarlar jamiyatda mehr va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish omili sifatida ham muhimlik kasb etadi. Shu ma'noda jahon va o'zbek adabiyotida animalist yozuvchi sifatida ma'lum va mashhur E.S. Tompson, Turgenov, Gorkiy, Marshak, Sh. Xolmirzayev, Tog'ay Murod qatorida bolalar adibi Erkin Malik o'z o'rni va yo'nalishiga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asari jahon animalistik adabiyotining durdonalaridan biri. Bu asar faqat hayvonlar haqida emas, balki erkinlikning insoniy qadr-qimmatini haqidagi falsafiy meros hisoblanadi. Asar haqida ko'plab yozuvchilar o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan, xususan, Maksim Gorkiy va Bernard Shou bu asarni ancha yuqori baholagan. Aytaylik, Maksim Gorkiy Tompson haqida hayvonlar dunyosini "ichkaridan" ko'ra bila olgan sehergar deb atagan. Gorkiyning so'zlariga ko'ra, Tompson hayvonlar obrazi orqali odamlarga shafqsizlikni emas, balki tabiatning yuksak g'ururini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Adabiyotshunoslar ham bu asarni "erkinlikning fojiviy madhiyasi" deb baholaydilar, chunki, ularning fikricha Tompsonning qahramonlari asirlikni emas, o'limni tanlaydi. Chindan ham asarning bosh g'oyasi erkinlik, daxlsizlik ekanligiga iqror bo'lamiz. Qora yo'rg'a o'zining beqiyos tanasi va chiroyli yurishi bilan hammani o'ziga tortadi. Uni kuzatish hamda qo'lga olish uchun eng tajribali chavandoz, turli tuzoqlar va eng kuchli otlar safarbar etiladi. Qora yo'rg'a – bu tabiatning o'zi. U hech qachon egar ko'rmagan, insonning buyrug'iga bo'ysunmagan. Bundan tashqari unda oliyjanoblik ham bor: u faqat o'zini o'ylab qochib qolmaydi, balki o'z uyurini himoya qiladi. Asardagi asosiy to'qnashuv insonning egalik qilish istagi va hayvonning ozodlikka bo'lgan tashnalligi o'rtasida kechadi. Inson (chavandoz)lar yo'rg'a ni faqat "qimmatbaho mulk" sifatida ko'radi. Ular otning ichki olamini, ruhiyatini-instinktini tushunishni xohlashmaydi, faqat uni jilovlashni istashadi. Voqea fojiviy yakun topadi. Asar yakunida, qora yo'rg'a barcha tuzoqlardan qochib, nihoyat tik jarlik yoqasiga kelib qoladi. Chavandozlar uni to'sib qo'yishgan, qochgani yo'l qoldirishmaydi. Mana shu yerda Seton-Tompson hayvonning ichki holatini so'zsiz, faqat o'sha jonivor kechinmasi bilan tasvirlay olgan: *"U bir lahza to'xtadi, orqasiga - yaqinlashib kelgan kishanlarga (arqonlarga) qaradi, so'ngra oldindagi tubsizlikka nazar tashladi. Uning ko'zlarida qo'rquv emas, balki qat'iyat bor edi. U asirlikda yashashdan ko'ra, ozod o'lishni afzal bildi."*

Yo'rg'aning o'zini jarlikka otishi - bu asarning kulminatsiyasi. Bu holat har bir kitobxonni chuqur qayg'uga soladi, lekin ayni paytda otning g'alabasini ko'rsatadi. U tutqunlikka bosh egishdan, o'lim orqali erkin bo'lishni afzal ko'rgani kitobxon shuurida sergaklik uyg'otadi. Umuman, Seton-Tompsonning "Domino" (kumushrang tulki) va "Arno" (pochta kabutari) haqidagi qissa va hikoyalarda ham hayvonlarning

psixologiyasini ochib berish mahorati yuksakligi yaqqol ko‘rinadi. Bular ham erkinlik va matonat asosiy motiv hisoblansa-da, har birining o‘ziga xos “falsafiy ifori” bor. “Domino” – quvg‘indagi hayot haqida yozilgan eng kuchli dramalardan biri. Asar markazida kumushrang-qora mo‘ynali tulki - Domino turadi. Uning g‘ayritabiiy go‘zalligi va rangi uni tabiatning tabiiy ziynati bo‘lgani uchun ovchilarning doimiy nishoniga aylantiradi. Dominoning hayotini adabiyotshunoslar tulki va itlar (ayniqsa, qonxo‘r Gekla) o‘rtasida shiddatli shaxmat o‘yiniga o‘xshatishadi. Bu jismoniy quvlov emas, balki intellekt janggi, ya‘ni kuchga qarshi aql: Domino dushmanlaridan faqat oson emas, balki vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, ayyorligi va sovuqqonligi bilan ustun keladi. Uning har bir harakati ortida ozod yashash huquqi uchun kurash yotadi. Thomson bu asarda yirtqich hayvon obrazini butunlay yangi tomondan ochib beradi. Domino o‘lja ortidan quvuvchi maxluq emas, u o‘z jufti Pikari ga bo‘lgan cheksiz sadoqati va bolalariga ko‘rsatgan g‘amxo‘rliqi orqali yuksak axloqiy qobiliyatni namoyon etadi. Muallif kitobxonni hayvonlar olamidagi mehr-muhabbat va mas‘uliyat hissi insonlarnikidan qolishmasligiga ishontira oladi. Asarning eng hayajonli va falsafiy cho‘qqisi, kulminatsiyasi - muz ustidagi quvlov sahnasidir. Domino o‘zini daryodagi suzib yurgan muz bo‘lagiga otib, dushmanini (Geklani) o‘limga mahkum qiladi. Bu sahna g‘alaba emas, balki g‘oyaning isbotidir, ya‘ni dushman sendan har qancha kuchli bo‘lmasin, aql va matonat bilan hatto eng umidsiz vaziyatda ham ozodlikni saqlab qolish mumkin.

“Arno” (Pochta kabutari haqida) “Domino” bilan bir qatorda eng nozik qanotli do‘stlarimiz psixologiyasining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Agar Domino matonat ramzi bo‘lsa, Arno - vatan sog‘inchi va sadoqat timsolidir. Arno yuzlab kilometr masofani, bo‘ronlar va yirtqich qushlarni yengib o‘tib, o‘z uyiga qaytishga intiladi. Har ikki asar ham tabiatning bo‘ysunmas irodasini ulug‘laydi. Hayvonlar intuitsiyasi va baholash o‘z tabiatiga sodiqlik insoniyat uchun o‘rnak bo‘lgan darajada tasvirlangan. Arno - pochta kabutari. Uning butun hayotiy qoidasi qayerda bo‘lmasin, o‘z uyiga, qadrdon kabutarxonasiga qaytish... Adiblar Arnoni “qanotli qahramon” deb atashadi, chunki u hatto yaralangan, qanotlari singan holda bo‘lmasin o‘z burchini bajarishga intiladi. Kabutarning oyog‘idagi “2590-C” shaxsiy belgi emas, balki uning shaxsiyati ramzi. U insonlar uchun “pochta tashuvchi vosita”, lekin tabiat uchun u yengilmas iroda egasi. Hikoya yakunida Arno o‘z uyiga yetib keladi, ammo jonsiz holda qaytadi. Uning qahramonligi shundaki, u o‘limidan oldin ham so‘nggi kuchini uyiga qaytish uchun sarflaydi. “Arno” asari o‘quvchiga sadoqatning chegarasi yo‘qligini va Vatan hatto mitti jonzot uchun ham muqaddasligini ko‘rsatadi hamda o‘rgatadi.

Snap, Bingo va Vulli. Bu uchala qahramon ham itlar bo‘lib, lekin taqdirleri turlicha: Snap hikoyasi – qo‘rqmaslik haqida. U o‘zidan bir necha barobar katta bo‘lgan bo‘riga qarshi qo‘rqmay tura oladi. Uning o‘limi - qahramonlik namunasi. U “qo‘rqoqlik nimaligini bilmaydigan yurak” ramzi. Bingo – bu hikoyada it va insonning o‘ziga xos do‘stligi, tushunmovchiliklarni oson yengish va sadoqat tasviri realistlik aks etgan asar.

“Vulli (Sariq it)” - bu biroz g‘amginroq hikoya. Itning o‘z egalariga bo‘lgan sadoqati va insonlarning unga nisbatan shafqatsizligi, beparvoligi tahlil qilinadi.

Bu qahramonlarning barchasini birlashtirib turadigan bitta nuqta bor: Hayvonlar - insonning o‘yinchoqlari emas, balki o‘z qismati, dardi va g‘ururiga ega bo‘lgan shaxslardir. Boris Begakning kitobi ham aynan shu qahramonlar misolida bolalarni “inson” bo‘lishga chaqiradi. Masalan, Loboni tushungan bola - sadoqatni, Snapni anglagan bola - mardlikni, Arnoni his qilgan bola esa vatanni sevishni o‘rganadi.

Muhokama. Rus bolalar adabiyotshunosligida Boris Begakning “Istochnik chelovechnosti” kitobi shunday qimmatga ega. Unda yetuk yozuvchi va shoirlarning hayvonlar va qushlar obraziga bag‘ishlangan asarlari o‘rganilar ekan, bu tabiat va jamiyat birligini ta‘minlovchi yuksak g‘amxo‘rlik, umuminsoniylik omili sifatida tadqiq etiladi. Xususan, “Milaya moya sobaka” (“Mening tantiq itim”) nomli ilk suhbatda Mixail Prishvin, Konstantin Paustovskiy, Yuriy Yakovlev, Georgiy Skrebitskiy, Andrey Batuyev, Eduard Shim kabi bolalar adiblarning to‘rtoyoqli do‘stlarimizning urush davrida, jang paytlari, tabiiy ofatlar vaqtida insonlarga ko‘rsatgan ulkan sadoqatlari to‘g‘risida, ya‘ni qadrdon va qahramon itlar haqida yozishgani eslab o‘tiladi. Rus adiblaridan birining iqrori esa qay jihatdandir, Erkin Malik e‘tirofiga hamohang: “Mening hayotimda, - deb yozadi Yuriy Yakovlev, - it yangilik timsoli. Uning yordamida hayotning yangi chiziqlarini o‘rgandim. Yashashning, quvonch va qayg‘uning betakror qirralarini kashf etdim. ...Men yozayapman, it esa yonimda cho‘nqayib o‘tiribdi. U xuddi mening fikrimni uqqanday, mening hissiyotlarimni sezganday... Men esa o‘z his-tuyg‘ularimni unga ishonganday... U bilan yo‘lak bo‘ylab yurarkanman, o‘zimga notanish kishilarni kashf etaman. Ha, kimki itlarni yaxshi ko‘rsa, u odamlarni yanada kuchliroq sevadi. Kishilardagi bag‘ritoshlik ikki xil bo‘lmaydi. U bir xil ko‘rinishda. Agar inson itlarga bag‘ritoshlik qilsa, odamlarga nisbatan ham shunday munosabatda bo‘ladi. Ezgulik ham yomonlik kabi bir butundir. Hatto eng murakkab vaziyatlarda ham??? (Добро, как и зло, неделимо. Оно едино даже в самых своих сложных проявлениях)” (19bet) Bu e‘tirofda jon bor. Inson ruhiyati, fe‘l-atvori ilk bolalik pallasidayoq shakllana boshlaydi. Ota-ona, tarbiyachilar kichkintoylarni yoshligidanoq atrofdagi narsalarga, jonivorlari hayvonlarga nisbatan mehri bo‘lishga o‘rgatishsa, keyinchalik bu hissiyot bola qalbini ezgulikka to‘ldiradi. Bolalar ularni sevish, g‘amxo‘rlik qilish orqali tabiatga, so‘ngra jamiyatga muhabbat qo‘yadilar.

Natijalar. Darhaqiqat, ushbu kitob muallifi o‘z tadqiqotlari davomida quyidagi savollarga javob topadi: “Insonniy sifatlar qayerdan keladi?”; “Mehr-shafqat, vijdon, mas‘uliyat, axloq qanday shakllanadi?”; “Insoniylikning manbai biologiyadami yoki ijtimoiy tarbiya va madaniyatdami?”; “Jamiyat taraqqiyotida ma‘naviyatning roli qanday?” Tabiatga bo‘lgan bu munosabatni bilish mavhum gumanizm emas, balki tabiatni o‘rganish, uni asrash va unga ongli munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi.[1] Muallif Boris Begak ushbu kitobni shunday itlar haqida emas, balki bolalarda va kattalarda rahmdillik va mas‘uliyatni kuzatish uchun qo‘llanma sifatida yozgan. Ushbu kitobning ilk sahifalarda

“it” so‘zining rus tili va adabiyotidagi ikki xil, bir-biriga qarama-qarshi ma’nosini tahlil qiladi:

1. Haqorat sifatida: rus xalq og‘zaki ijodida va qadimiy asarlarda “it” so‘zi ko‘pincha dushmani tahqirlash uchun. Masalan, Ilya Muromets dushmanini “it-o‘g‘ri Kalin podshoh” deb ataydi. Adabiyotda “la’nati it”, “itdan tarqalgan” kabi iboralar dushmanlik ramzi bo‘lib kelgan.

2. Sadoqat timsoli sifatida: muallif Pushkinning “Kapitan qizi” asaridagi Savelichni misol qiladi. Savelich o‘z xo‘jayiniga qarata: “*Men qari it emas, sadoqatli qulingizman*” – deydi. Turgenevning mashhur “Mumu” asari va Stanyukovichning dengizchilar va itlar haqidagi hikoyalari orqali itlarning naqadar mehribon va vafoli ekanligi ko‘rsatib berilgan.

3. Ilya Muromets ismli bahodirning Kiyevni qamal qilish Kalin-podshoh bilan uchrashuvi haqidagi rus xalq og‘zaki ijodi namunasida, Ilya Kalinga yuridik murojaat qiladi: - Assalomu alaykum, it-o‘g‘ri Kalin-podshoh.

4. Bundan ham hayratlanarlisi, martabali bosqinchi yuborgan elchi knyaz Vladimirga maktubni taklif so‘zlar bilan topshiradi: - Mana bu maktubchani ko‘rib chiq, Vladimir-knyaz, bizning it-podshohimiz Kalindan keldi.

5. Xalq komediyasida esa personaj o‘zini tomoshabinlarga soddalik bilan tanishtiradi: - Men imonsiz it podshoh Maksimilyanman...

Ko‘rib turganimizdek, qadim zamonlardan buyon bu so‘z nutqiy va adabiyot muomalada “qurol” sifatida qo‘llanib kelgan. “La’nati it”, “haqir it”, “itdan tarqagan” - kabi variantlari turli davr va xalqlarning maishiy dramasi, tarixi roman va novellalari qahramonlari tilida tez-tez uchrab turadi.

6. “Senga uyat, ey qari it...” - deb yozadi “Kapitan qizi” asarida Grinevning otasi Savelichga. “Sen, qari itni, cho‘chqa boqishga yuboraman...” Bunga javoban chol g‘urur bilan javob beradi: “...Men qari it emas, sizning sadoqatli qulingizman.” Savelich uchun “qari it” va “sadoqatli qul” tushunchalari bir-birini inkor etadi.

7. Haqiqatga qarshi o‘laroq. Dehqonlarni ezuvchi zolim boshqaruvchi haqida Turgenev asaridagi bir dehqon shunday deydi: - Axir u shunday itki, shunday itki, xudoyim gunohimdan o‘tsin-u, kinga tashlanishni biladi...

8. Barqaror laqab bo‘lgan “It” (katta harf bilan) Stanyukovichning “Uzoq o‘tmishdan” deb nomlangan hikoyasidagi harbiy kema matroslari ajratilgan jazolashda shafqatsiz bo‘lgan kapitanga berilgan edi. Shafqatsiz komandir haqidagi hikoya ham shunday deb aytili: “It.”

9. Bundan ham mashhur Turgenevning soqov bahodir Gerasimning sevimli kuchukchasi “Mumu” haqidagi novellasi. Bu novella o‘z ichiga zulmga nisbatan kinoyali masxarani, krepostnoylik qulligiga qarshi g‘azabli norozilikni va yuqori xizmatkorlarning yolg‘onchiligiga qarshi kichik xizmatkorning o‘ta halolligi hamda o‘z so‘ziga sodiqligini (hatto bu sodiqlik u uchun fojiga aylansa ham) qarama-qarshi qo‘ygan.

Aslida gap nimada? Bunday yoqqol va g'alati ziddiyatni qanday tushunish mumkin? Qanday qilib bir mavjudot ham odamlarning nafratiga (tilda haqorat sifatida), ham cheksiz muhabbati va rahm-shafqatiga loyiq bo'lishi mumkin?

Kitobning asosiy g'oyasi shundaki, insoniylik tug'ma emas, u tarbiya, muhit, madaniyat va shaxsiy tanlov orqali shakllanadi deyiladi. Asarda inson faqat aql bilan emas, vijdon bilan ham yashash, texnik taraqqiyot ma'naviy taraqqiyotdan oldinda ketmasligi, jamiyatda shafqatsizlik kuchaysa, insoniylik yo'qola boshlashi, insoniylikning eng muhim manbai - insonning boshqa insonga munosabati kabi masalalar ko'tarilgan.

Binobarin, ko'proq bolalar adabiyotida tirik tabiat haqida yozadigan ijodkorlar o'z qalbida bolalikni, to'rt oyoqli va qanotli do'stlariga bo'lgan yaqinlikni saqlab qolganlari bejiz emas. O'z iste'dodi bilan hayvonot olamiga bog'langan bu insonlar, asarlariga yuksak mahorat bilan mehr timsollarini olib kirdilar, desak yanglishmaymiz. Olimlar, tabiatshunoslar, o'zlarining adabiy iste'dodlari bilan keng kitobxonlar ommasiga tabiatni anglash yo'llarini, unga bo'lgan muhabbat kuchini, uni himoya qilishda mardlikning muhimligini oshirishga yordam beradi. Sayohatshunoslar, o'zlarining boy tajribalari va keng dunyoqarashlari bilan atrof-muhitni saqlash g'oyasi uchun salmoqli dalillar keltirishadi. Ovchilar va izquvarlar, qalin o'rmonlar va keng dalalarni tanish hamda notanish hayvonlar va qushlarning izidan kezib chiqqan insonlar - ular ko'pincha ko'rgan mo'jizalari qarshisida o'z militsiyalarini tushiradilar. Ular Turgenev aytganidek, "hayot faqat muhabbat bilangina ushlanib turadi va harakatlanadi" degan haqiqatni anglab yetganlardir.

B. Begakning "Insoniylik manbai. Odamlar va hayvonlar" kitobi shu ma'noda o'quvchiga ham bilim berish, ham axloqiy va estetik tarbiya berish dasturidir. [16] Bu yo'nalish rus adabiyotida Lev Tolstoy, Turgenev, Nekrasov, Chexov, Mamin-Sibiryak, Stanyukovich, Kuprin va Garin-Mixaylovskiylarning ijodida kuzatilgan bo'lsa, o'zbek bolalar she'riyatida Zafar Diyor, Shukur Sa'dulla, Po'lat Mo'min, Quddus Muhammadiy kabi shoirlar ijodida yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Ayniqsa, Q.Muhammadiyning besh kitobdan iborat "Tabiat alifbesi" ensiklopedik to'plamida hayvonlaru jonivorlar, qushlaru parrandalarga bag'ishlangan "Qanotli do'stlar", "Cho'pon bobo qo'shig'i" singari alohida asarlari mavjudki, bularning barchasida tabiatning zabonsiz ammo mo'jizaviy yaratilari madh etiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek bolalar nasrida bu an'anani Erkin Malikning o'ziga xos uslub hamda ifoda bilan davom ettirib kelmoqda.

Bola qalbida beg'uborlik, qiziquvchanlik va jo'shqinlik bilan birga tabiat ne'matlariga ishtiyoq ham kuchli bo'ladi. Ayniqsa, jonivorlar bilan "tillashish", tabiat qo'yni - bolakaylarning jonu dili. Zero, bolalar adabiyotida animalistik mavzudagi asarlar alohida yo'nalishni tashkil etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu yo'nalish ijodkorlari, avvalo, o'zida bolalik olamini hamda to'rt oyoqli va qanotli do'stlarimizga samimiy muhabbatini saqlab qola olganligi bilan ajaralib turadilar. Insonparvarlik manbaalaridan biri ham aslida jonivorlarga nisbatan yuksak g'amxo'rlikning mavjudligidir. Bu alal-oqibat

insonlarga mehr-oqibat ko'rsatish, yaxshilik qilishga olib keladi. Ya'ni, tabiatni va uning bir qismi hisoblanuvchi hayvonot olamini avaylash insonparvarlikning ilk bosqichidir. Shu ma'noda, Erkin Malikning "Osmondan tushgan Oqtosh", "Oqtosh raqsga tushadi", "Ro'molchaxat", "Ko'ktoy" "Champo otli ilon", "Ilonlarni qandoq qilib yeganimiz haqida", "O'zim chaqirgan mehmon" turkum hikoyalari animalistik mavzuda bo'lib yosh kitobxonlarni qiziqтира oladi. Adib bu hikoyalarda tilsiz jonivorlarning ko'pgina xususiyatlarini aniq chizgilarida tasvirlaydi. Jumladan, muallif Sharik, Reks, Ko'ktoy, Oqtosh obrazlari orqali itlarning real xarakterini tadqiq etgan. Bunda yozuvchining hayotda ko'rgan-kuzatganlari, eshitganlari asos bo'lgan, albatta. Chunki bu hikoyalarning ko'pchiligi aniq xotiralar, hujjatli dalillar asosiga qurilgani bois, ular g'oyat ishonarli va aniq chiqqan. Xususan, adibning Oqtosh ismli it haqidagi turkum hikoyalari yaxlit kompozitsion syujetga egaligi, kengqamrovli ma'lumotga egaligi hamda teran tadqiq asosida bayon qilingani bilan e'tiborni tortadi. Hikoya qilinishicha, bu it muallif dala hovlisida osmondan tushganday, birdaniga paydo bo'ladi. Va hech e'tirozsiz, yangi egasiga darhol bo'ysuna boshlaydi. Qirq yildan ziyod tog'da podachilik qilaverib, itlarning fe'l-atvorini yaxshi biladigan Boymurod aka uning rangiga ishqiboz bo'lib surishtira boshlaganda, adib unga nazar tashlaydi va ismini ham bexosdan o'zi qo'yadi. Shunday bo'lsada, it "xo'jayini"ning aytganlariga quloq soladi-yu, Boymurod akani ko'rganda tinmay irillaydi.[2]

Oqtosh o'z nomi bilan oppoq rangda. Erkin Malik hikoyada itning o'z egasiga bo'lgan cheksiz muhabbatini tasvirlaydi. Kitobxon uni ko'ziga yosh bilan o'qiydi. Oqtosh – o'z harakatini biladigan it. U o'z egasini yillar davomida, har qanday ob-havoda kutadi. Bu shaxsiy yoki moddiy manfaatlardan xoli bo'lgan sof samimiyat timsoli, ma'naviy suyanchga o'xshaydi. Hikoyada Oqtoshning vafodorligi fonida ayrim insonlarning beparvoligi yoki beshafqatligi ham ko'rinadi. Oqtosh yana unutilgan qadriyatlarining, ya'ni beg'araz sadoqatning timsoli hamdir. Hikoya qahramonining u haqdagi xotiralari o'quvchi ruhiyatiga ham singib ketadi: *"Men kunma-kun Oqtoshni kashf etib borardim. U ko'rinmas ip bilan bog'lab qo'yilgandek mendan ajralmas edi. Biror yoqqa o'tlanib qolsam, mendan oldin yo'lga tushardi. Men tappi terib kelish, tog'dan o'tin olib tushish, suv ochish uchun boshqa boshqa so'qmoqlardan borardim. Oqtosh hovlidan chiqmasimdanoq o'sha so'qmoqda meni kutib turardi. Tavba, shu yoqqa yurishimni qayerdan biladi deb hayron bo'lardim. Gapga tushinishi bir sari edi-yu odamning fikrini uqib olishi bir sari edi. Ha, meni benihoya hayratga solardi. Keyinchalik bu sirning tagiga yetdim. Oqtosh qo'limdagi narsadan fol olar ekan. Yelkamga ketmon tashlab chiqsam, buloq boshiga, qop ko'tarib olsam, tappiga, qo'limda arqon bo'lsa, o'tinga borishimni sezarkan". [2]*

"Ko'ktoy" hikoyasida esa itning sadoqati, uning mardligi va himoyachiligi kabi sifatleri birinchi planga chiqadi. Ko'ktoy o'z hududini, o'z egalarini himoya qilish uchun jonini fido qilishga tayyor jonzot. Undagi o'z xonadoniga nisbatan "vatanparvarlik" hissi juda kuchli tasvirlangan. Erkin Malik Ko'ktoyning o'z haddini bilishi, dumini likillatishi

yoki nigohlari orqali uning ichki tuyg'ulari va minnatdorchilik hissini mohirona ochib bergan. Bu obraz bolalarda hayvonlarga nisbatan qo'rquvni emas, balki ularni va do'stlashish tuyg'usini uyg'otadi.

Seton-Tompsonning "Domino"sidagi kabi aql va omon qolish san'ati Erkin Malikning Oqtosh va Ko'ktoy obrazlarida o'zbekona mehr va xonadon sadoqati bilan almashadi. Adib bu obrazlar orqali muhim savolni o'rtaga tashlaydi: *"Agar hayvonlar shunchalik vafodor bo'lsa, nega inson ba'zan o'zidan ongi va zabaniga ko'ra pastroq jonzotchalik bo'la olmaydi?"*

Shu ma'noda, I.S.Turgenevning "Chumchuq" hikoyasida ham ovdan qaytayotgan qahramonning Tresor ismli iti to'satdan to'xtab qoladi va nimagadir tashlanmoqchi bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, kuchli shamol tufayli uyasidan tushib ketgan mitti chumchuq poloponi yerda ojiz yotardi. Ayni shu payt daraxtdan usti sarg'ish ko'kragi qora qarib qolgan ona chumchuq o'zini itning ochiq og'zi qarshisiga otadi. U itning ulkan gavdasidan qo'rqsa-da, o'z bolasini himoya qilish uchun bor vujudi bilan chirillaydi. It hayratdan to'xtab qoladi va ortiga chekinadi. Egasi itini chaqirib oladi va chuqur hayajon bilan: *"Ha, kulmang. Men o'sha mitti, fidoyi qushcha, uning muhabbati oldida ta'zim qildim. Men o'shanda ona muhabbati o'lim qo'rquvi yoki o'limdan kuchliroq ekanini tushundim. Faqat muhabbat bilangina hayot yashnab turadi va faqat muhabbat bilan olam harakatlanadi."*, deydi yozuvchi.

Ko'rinadiki, bu kabi hikoyalarning tili sodda bo'lsa-da, mazmunan bolalarni ham, kattalarni ham atrofimizdagi jonzotlarga "shunchaki hayvon" deb emas, balki "tirik qalb egasi" deb qarashga o'rgatadi. Bu yo'nalishdagi asarlarni birlashtirib turadigan umumiy nuqta esa jonzotlarning "psixologik sadoqati"dir.

Xulosa. Turgenev "Chumchuq": bu yerda muhabbat - shafqatsiz kuch ustidan g'alaba. Kichkinagina qush ulkan itni faqat irodasi va sevgisi bilan to'xtata oldi.

Seton-Tompson "Domino": Dominoning o'z jufti Pikariga bo'lgan sadoqati va bolalari uchun qilgan jasorati Turgenev aytgan o'sha "harakat beradigan kuch"ning o'zidir. Uning muz ustida o'lim bilan olishishi ham faqat o'zini emas, balki o'z naslini asrash istagidan tug'iladi.

Erkin Malik "Oqtosh": Oqtoshning yillar bir nuqtada egasining ortidan yurishi - bu Turgenev iqtibosining tirik isboti. Agar muhabbat bo'lmaganida, Oqtoshning hayoti ma'nosiz bo'lib qolardi. Uni yashashga va harakatlanishga majbur qilgan narsa - egasiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatidir.

Jahon adabiyoti xazinasidagi Domino yoki Oqtosh kabi hikoyalar bizga shuni o'rgatadiki, hayvonlar olami jismoniy instinktlardan iborat emas, ularning har bir harakatida, har bir jasoratida Turgenev aytgan o'sha buyuk haqiqat yashiringan: "Hayotni faqat muhabbat ushlab turadi, u turli ko'rinishda bo'lmasin, go'zal muhabbat - yagona kuchdir".

Boris Begak shunday deydi, “Ezgulik va insoniylikni tarbiyalash bizning adabiyotimiz, ma’naviy dunyoqarashimizning ajralmas qismi”dir. Tabiatga bo‘lgan bu munosabatni bilish mavhum gumanizm emas, balki tabiatni o‘rganish, uni asrash va unga ongli munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Shuni xohlardikki, pedagoglar, bog‘cha tarbiyachilaridan tortib to maktab o‘qituvchilarigacha, adabiyotning bu ulkan manbalaridan, ya’ni hayvonlar haqidagi hikoya, qissa va she’rlardan samarali foydalansinlar. Ota-onalar va bolaga yaqin bo‘lgan boshqa insonlar o‘zlarining bepisandliklari bilan bolalarning hayvonlarga bo‘lgan muhabbatiga to‘sqinlik qilmasinlar. Bu nafaqat hayvon uchun, balki insonning o‘zi uchun ham ahamiyatli.[1]

Erkin Malik shu ma’noda o‘zbek adabiyotida animalistik janrning o‘ziga xos davomchisi va nazariyotchisi sifatida rivojlantirmoqda deya olamiz. Yozuvchi o‘z asarlari orqali kitobxonni hayvonot olamining “jismoniy instinktlar”idan yuqori turuvchi, Turgenev aytgan “yagona kuch – muhabbat” asosiga buyuk haqiqat bilan yuzlashtiradi. Bu esa o‘zbek animalistik prozasining jahon adabiyoti xazinasini bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Istochnik chelovechnosti. Lyudi i zveri: Ocherki/Xudoj. B. Chuprigin. – M.: Det. Lit., 1986.
2. Champo otlil ilon: qissalar/Erkin Malik. – Toshkent: Kitobdornashr, 2023.
3. Safarov O., Jamilova B. Bolalik boqiylik timsoli yoxud “muxbirlikning olis yo‘llari”. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. M. Gorkiy va fan: Materiallar to‘plami, SSSR Fanlar Akademiyasi, Dunyo adabiyoti instituti (IMLI), Nauka, Moskva, 1964.
5. Xorijiy adabiyot tarixi. Seminar: Akademik bakalavr darajasi uchun darslik. Moskva: Yurait, 2015.
6. B.Jamilova, F. Boboxonova [ERKIN MALIK QISSALARIDA YETIMLIK MOTIVI IFODASI](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xADU49wAAAAJ&citation_for_view=xADU49wAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC) maqola https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xADU49wAAAAJ&citation_for_view=xADU49wAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
7. F. Boboxonova [BOLALARGA BAG‘ISHLANGAN MEDIA KONTENTLAR TAHLILI](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xADU49wAAAAJ&citation_for_view=xADU49wAAAAJ:IjCSPb-OGc4C) https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xADU49wAAAAJ&citation_for_view=xADU49wAAAAJ:IjCSPb-OGc4C
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yovvoyi_yo%CA%BBrg%CA%BBa
9. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D1%82%D0%B8%D1%85%D0%BE%D1%82%D0%B2%D0%BE%D1%80%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F_%D0%B2_%D0%BF%D1%80%D0%BE%D0%B7%D0%B5
10. <https://www.google.com/search?q=About+https://journalss.org/index.php/obr/article/download/1075/3/10357/20692&tbm=ilp&ctx=atr&sa=X&ved=2ahUKEwj3rfzB-fOSAxV6KxAIHY2DJtIQv5AHegQIABAD>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/iz-dalekogo-proshlogo-publikatsiya-v-m-kryukova>
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D1%83%D0%BC%D1%83>
13. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D1%83%D0%BC%D1%83#%D0%9E%D1%82%D0%B7%D1%8B%D0%B2%D1%8B>